

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO‘K: 172.2:1(091)“20”

IJTIMOIY ADOLATNING FALSAFIY TALQINI: TARIXIY VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLARФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ:
ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫPHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF SOCIAL JUSTICE: HISTORICAL AND
CONTEMPORARY APPROACHESBoltaboyev Iqboljon Tursunaliyevich 

Farg'ona davlat texnika universiteti 1-sonli Akademik litsey direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy adolat tushunchasining falsafiy asoslari, tarixiy shakllanish bosqichlari va zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrda adolatga oid qarashlarning rivojlanishi Platon, Aristotel, Al-Farobiy, Ibn Sino, Jon Rols kabi mutafakkirlarning fikrlari asosida ko'rib chiqiladi. Zamonaviy davrda adolat masalasining inson huquqlari, iqtisodiy tenglik va imkoniyatlar adolati bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy muhitida adolat konsepsiyasining ifodalanishi, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi va amaliy jarayonlardagi aks ettirilishi o'rganiladi. Maqolada ijtimoiy falsafa metodlari asosida adolat tushunchasining mazmun-mohiyatini chuqur anglash hamda uning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi roli yoritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается философская сущность понятия социальной справедливости, её историческая эволюция и современные интерпретации. Анализируются взгляды таких мыслителей, как Платон, Аристотель, Аль-Фараби, Ибн Сина, а также современная теория справедливости Джона Ролза и концепция справедливости возможностей Амартии Сена. Особое внимание уделяется социофилософскому осмыслению справедливости в контексте современного Узбекистана, где понятие справедливости рассматривается сквозь призму национальных ценностей и текущих социальных реформ. Статья направлена на глубокое философское осмысление роли социальной справедливости в обеспечении устойчивости и гармоничного развития общества.

Abstract

This article explores the philosophical interpretation of the concept of social justice, tracing its historical evolution and analyzing its modern conceptualizations. The ideas of prominent thinkers such as Plato, Aristotle, Al-Farabi, Ibn Sina, John Rawls, and Amartya Sen are examined in order to highlight various perspectives on justice. Particular attention is paid to the understanding of social justice within the sociophilosophical context of contemporary Uzbekistan, where the concept is analyzed in relation to national values and ongoing social reforms. The article seeks to provide a deeper philosophical insight into the role of social justice in achieving societal stability and sustainable development.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, falsafa, tenglik, adolat tarixi, Jon Rols, imkoniyatlar adolati.

Ключевые слова: социальная справедливость, философия, равенство, история идеи, Джон Ролз, возможности.

Key words: social justice, philosophy, equality, history of ideas, John Rawls, capabilities.

KIRISH

Ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va eng dolzarb tushunchalaridan biridir. U insonlar o'rtasida tenglik, erkinlik va huquqiy barobarlik tamoyillarini ifodalaydi. Tarixiy jarayonlarda adolat tushunchasi turli shakllarda namoyon bo'lgan: qadimgi Sharq falsafasida u kosmik tartib bilan bog'liq bo'lsa, G'arb falsafasida u ijtimoiy me'yor va siyosiy muvozanat mezon sifatida talqin qilingan. Bugungi kunda esa ijtimoiy adolat masalasi global tengsizlik, ijtimoiy integratsiya, raqamli transformatsiya va inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilmoqda.

Mazkur tushuncha qadimdan buyon falsafiy tafakkur markazida bo'lib kelgan bo'lsa-da, zamonaviy jamiyatda u yanada murakkab va ko'p qirrali mazmun kasb etmoqda. Ijtimoiy adolat masalasi Platon va Aristoteldan boshlab, Ibn Sino, Al-Farobiy, Tomas Gobs, Jon Rols kabi

FALSAFA

mutafakkirlar tomonidan turlicha talqin qilinib kelgan. Har bir tarixiy davrda va madaniy muhitda ijtimoiy adolat o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan bo'lsa-da, uning asosiy mohiyati –insonning jamiyatdagi haqli o'rnini belgilash va saqlashdan iboratdir. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ham ijtimoiy adolat g'oyasi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning asosi sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan ijtimoiy falsafa sohasi uchun bu masalani nazariy tahlil qilish, adolat mezonlarini qayta ko'rib chiqish va ular asosida yangi ijtimoiy munosabatlar modelini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada ijtimoiy adolat tushunchasining falsafiy asoslari, tarixiy shakllanish jarayoni va zamonaviy talqinlari ijtimoiy falsafa metodologiyasi doirasida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy adolat g'oyasi qadimdan insoniyat tafakkurining markaziy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Uning dastlabki falsafiy asoslari qadimgi yunon faylasuflari –Platon va Aristotel qarashlarida mujassam. Platon o'zining “Davlat” asarida adolatni har bir inson va ijtimoiy sinfning o'z o'rnida faoliyat yuritishi, ya'ni “har kim o'z ishini qilishi” orqali yuzaga chiqadi, deb hisoblagan. Bu yondashuvda adolat –jamiyatdagi muvozanat va uyg'unlikni saqlovchi tamoyil sifatida talqin etiladi. Aristotel esa “Nikomax axloqi” asarida adolatni distributiv (taqsimlovchi) va korrekativ (to'g'rilovchi) adolatga ajratadi. Unga ko'ra, adolat ijtimoiy resurslarning har kimga munosib me'yor asosida taqsimlanishidir. Bu yondashuv keyinchalik O'rta asr musulmon sharq mutafakkirlarining fikrlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi [1].

Al-Farobiy ijtimoiy adolatni “fazilatli jamiyat” konsepsiyasi orqali tushuntirib, uni axloqiy etuklik va ilm-fan asosida barpo etiladigan ijtimoiy tartib bilan bog'laydi. Ibn Sino esa adolatni jamiyat hayotining ichki muvozanatini ta'minlovchi eng oliy axloqiy fazilat sifatida ko'radi. Bu qarashlar ijtimoiy adolatni nafaqat ijtimoiy tenglik, balki axloqiy kamolot bilan bog'laydi.

Zamonaviy davrga kelib, ijtimoiy adolatga nisbatan qarashlar murakkablashdi va yangicha nazariy asoslar ishlab chiqildi. Bu borada amerikalik faylasuf Jon Rolsning “Adolat nazariyasi” (1971) asari muhim o'rin egallaydi. Rols adolatni “institutSIONAL muvofiqlik” tamoyili asosida tushuntiradi va ikkita asosiy prinsipni ilgari suradi:

1. Har bir inson eng keng erkinliklarga ega bo'lishi kerak;

2. Ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar faqat u holda maqbulki, agar ular jamiyatning eng kam imkoniyatli a'zolari foydasiga xizmat qilsa. Boshqa zamonaviy nazariyotchilardan biri Amartya Sen adolatni insonlarning imkoniyatlari va real tanlov erkinligiga asoslangan holda tahlil qiladi. U Rols yondashuvdagi “ideal muhit” o'rniga real hayotdagi sharoitlarni hisobga olishni taklifetadi [2]. Postmodern yondashuvlar esa ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy va siyosiy doirada emas, balki madaniy, identitet va tan olinishi masalalari bilan ham bog'laydi.

Misol uchun, Nansi Freyzer va Iris Marion Young kabi mutafakkirlar ijtimoiy tan olinmaslikni adolatsizlikning eng chuqur shakli deb hisoblaydilar.

O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy adolat g'oyasi mustaqillikdan so'ng yanada dolzarb tus oldi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, huquqiy tizimdagi o'zgarishlar va inson kapitaliga e'tibor ortib borayotgan bir sharoitda, adolat g'oyasining mazmunan boyishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada har bir fuqaroning teng huquqliligi, mehnat va ta'lim olish erkinligi, ijtimoiy himoya kabi jihatlar nazarda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularning to'liq ro'yobga chiqishi dolzarb falsafiy va siyosiy muammo sifatida qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy falsafa uchun adolat g'oyasining milliy qadriyatlar, an'analar, va jamiyatning o'ziga xos taraqqiyot modeli bilan qanday uyg'unlashayotganini chuqur tahlil qilish zarur [3].

Ijtimoiy adolatning zamonaviy talqini O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, imkoniyatlar tengligini ta'minlash yo'lidagi siyosiy va institutsional choralar bilan bevosita bog'liq. Shu boisdan ham, ijtimoiy falsafa doirasida adolat masalasini nazariy va amaliy jihatdan uyg'un holda yoritish zarurati ortmoqda. Ijtimoiy adolat masalasini chuqur falsafiy o'rganish uchun tarixiy-falsafiy manbalar va zamonaviy nazariy ishlanmalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilish muhimdir. Bu borada qadimiy yunon falsafasidan tortib zamonaviy g'arbiy va sharqona tafakkur namunalarigacha bo'lgan keng adabiyotlar korpusi mavjud. Platonning “Respublika” (Davlat) asari ijtimoiy adolat tushunchasining ilk falsafiy talqinlarini beradi. Bu asarda Platon jamiyatdagi adolatni har bir tabaqaning o'z o'rnida bo'lishi, o'z funksiyasini ado etishi orqali ta'minlanishini asoslaydi. Uning g'oyalari ijtimoiy muvozanat va siyosiy boshqaruvda adolat mezonlarini belgilashda zamonaviy tahlilchilar tomonidan ham dolzarb deb baholanadi.

Aristotelning “Nikomax axloqi” va “Siyosat” asarlarida adolat turlari (taqsimlovchi va tuzatuvchi) asosida ijtimoiy munosabatlardagi muvozanat mezonlari ishlab chiqiladi. Uning adolatni axloqiy fazilat sifatida talqin qilishi, keyingi asrlar falsafasiga chuqur ta’sir ko’rsatdi. Musulmon Sharq mutafakkirlari –Al-Farobiy, Ibn Sino va Nasiriddin Tusi asarlarida esa adolat nafaqat siyosiy tuzum asosida, balki axloqiy kamolot va bilim asosida tashkil etiladigan fazilatli jamiyatning asosi sifatida tushuniladi. Bu jihatlar ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida adolatni ilohiy va insoniy qadriyatlar uyg’unligida ko’rishiga sabab bo’lgan. Zamonaviy nazariy adabiyotlar orasida Jon Rolsning “Adolat nazariyasi” asari eng muhim manbalardan biridir. Unda adolat institutsional va procedural nuqtai nazardan yondashilib, “original pozitsiya” va “noto’g’ri bilish pardasi” konseptlari orqali adolatli jamiyatni qanday qurish mumkinligi nazariy asoslanadi [4].

Amartya Senning “Development as Freedom” asarida esa adolat insonlarning real imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog’lanadi. U adolatni faqat ideal modellar orqali emas, balki real hayotdagi ijtimoiy muammolar kontekstida baholash zarurligini ta’kidlaydi. Nansi Freyzer va Iris Marion Young kabi postmodern mutafakkirlar esa ijtimoiy tan olinmaslik, madaniy chetlab qo’yish va imkoniyatlardan mahrumlikni adolatsizlikning zamonaviy shakllari sifatida tahlil qiladi. Ularning yondashuvi adolatni ko’proq identitet, ijtimoiy xilma-xillik va teng vakillik kontekstida talqin etadi [5].

Mahalliy adabiyotlarda esa O’zbekiston olimlari tomonidan ijtimoiy adolatga oid qarashlar, asosan, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy himoya va taraqqiyot strategiyalari doirasida ko’rib chiqiladi. Xususan, Sh.M.Mirziyoyev asarlarida adolatga asoslangan davlat siyosati, inson qadri va teng imkoniyatlar tushunchalari alohida o’rin egallaydi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa ijtimoiy adolat tamoyillarining huquqiy asosini tashkil etadi [6]. Ijtimoiy adolat tushunchasini chuqur falsafiy o’rganishda bir nechta ilmiy metodlardan kompleks foydalanish zarur.

Quyidagi metodlar asosiy tahlil vositasi sifatida tanlangan:

1) Tarixiy tahlil (istorik analiz). Bu metod ijtimoiy adolat konsepsiyasining tarixiy shakllanish jarayonini o’rganishda muhim ro’l o’ynaydi. Palton, Aristotel kabi qadimgi yunon faylasuflaridan boshlab, O’rta asr musulmon mutafakkirlari – Al Farobiy, Ibn Sino va Tusi, hamda Yevropa Uyg’onish davri va zamonaviy davr nazaryotchilarining g’oyalari tarixiy kontekstda tahlil qilinadi. Tarixiy tahlil orqali ijtimoiy adolat tushunchasini davrlar bo’yicha qanday o’zgarishga uchragani aniqlanadi;

2) Maqsadli taqqoslash (komparativanaliz). Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar, G’arb va Sharq tafakkuri o’rtasidagi adolatga oid qarashlarni taqqoslash orqali bu tushunchaning turlicha talqinlari aniqlanadi. Ayniqsa, Jon Rols va Amartya Sen kabi nazariyotchilar yondashuvi bilan Al-Farobiy va Ibn Sinoning g’oyalari o’rtasidagi umumiylik va tafovutlar tahlil qilinadi;

3) Kontseptual tahlil. Ijtimoiy adolat tushunchasining ichki tarkibi —tenglik, erkinlik, huquq, taqsimot kabi asosiy kategoriyalarni ochib berish uchun kontseptual yondashuv qo’llaniladi. Bu metod falsafiy muammolarni tushunish, izchil ta’riflash va kategorik jihatdan aniqlik kiritish imkonini beradi.

4) Fenomenologik metod. Postmodern va zamonaviy yondashuvlarda ijtimoiy adolat subyektiv tajriba sifatida ko’riladi. Bu metod orqali Nansi Freyzer, Iris Marion Young kabi mualliflarning ijtimoiy tan olinmaslik, marginalizatsiya va madaniy chetlatish singari masalalarga bergan talqinlari tahlil qilinadi;

5) Sotsial-psixologik tahlil. Adolat tushunchasining jamiyatda qanday qabul qilinishi, unga bo’lgan ishonch va emotsional munosabatlar — sotsial-psixologik metod yordamida o’rganiladi. Bu metod ayniqsa adolatning ijtimoiy guruhlar va shaxslar ongidagi obrazini tahlil qilishda qo’l keladi;

6) Analitik-sistematik yondashuv. Adolat tushunchasini tashkil etuvchi elementlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqliklarni tahlil qilishda qo’llaniladi. Bu yondashuv nazariy asoslarni tartibga solish, ularni strukturaviy jihatdan izohlashga imkon beradi.

7) Interdistsipliner yondashuv. Falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik va iqtisod fanlari chorrahasida ijtimoiy adolatga oid turli nuqtai nazarlar uyg’unlashtiriladi. Bu metod orqali adolatning har tomonlama talqini yaratiladi, jumladan, O’zbekiston ijtimoiy-falsafiy kontekstida [7].

NATIJA VA MUHOKAMA

Mazkur maqolada ijtimoiy adolatning falsafiy talqini tarixiy va zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo’lib, quyidagi asosiy natijalarga erishilgan.

1. Ijtimoiy adolatning tarixiy rivojlanishi: Tarixiy tahlil orqali ijtimoiy adolat tushunchasining qadimgi Yunon falsafasidan tortib, O’rta asrlar va yangi davr falsafasida qanday o’zgarib borishi aniqlangan. Ayniqsa, Aristotelning "adiyat" tushunchasi va uning adolatga oid ta’limotlari,

FALSAFA

shuningdek, xristian teologiyasidagi adolat kontseptsionalari, ijtimoiy adolatning dastlabki shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

2. Zamonaviy yondashuvlar: Maqolada zamonaviy ijtimoiy adolatning falsafiy yondashuvlari, jumladan, liberalizm, marksizm va postmodernizm singari yondashuvlar tahlil qilingan. Liberal yondashuvlar adolatni individual huquqlar va erkinliklar asosida, marksistlar esa adolatni sinfiy tenglik va resurslar taqsimoti bilan bog'lashgan. Postmodernistlar esa ijtimoiy adolatni kengroq madaniy, til va identitet masalalari bilan bog'lashadi.

3. Ijtimoiy adolatning o'zgaruvchan mezonlari: Maqolada ijtimoiy adolatning mezonlari o'zgarishini ko'rsatish mumkin bo'ldi. Tarixiy davrlarda ijtimoiy tenglik va resurslar taqsimoti asosiy e'tibor qaratilgan mezonlar bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda ekologik adolat, raqamli tenglik va global ijtimoiy mas'uliyat kabi yangi mezonlar paydo bo'ldi. Bu natija ijtimoiy adolatning doimiy o'zgarib boruvchi tushuncha ekanligini ta'kidlaydi.

4. Birinchi marta ijtimoiy adolatning o'zbek falsafasi kontekstida o'rganilishi: Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy sharoitida ijtimoiy adolat tushunchasining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. O'zbek falsafasining tarixiy va zamonaviy qarashlari, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi.

5. Ijtimoiy adolat va adolat tushunchalari o'rtasidagi farqlar: Maqolada ijtimoiy adolat va umuman adolat tushunchalari o'rtasidagi farq aniqlandi. Ijtimoiy adolat faqat ijtimoiy tuzumlarga taalluqli bo'lib, resurslarni taqsimlash, tenglikni ta'minlash va huquqlarni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, adolat tushunchasi kengroq va universal printsiplarga asoslanadi, u faqat ijtimoiy emas, balki axloqiy va ma'naviy jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

6. Yangi yondashuvlar va masalalar: Maqolada ekologik adolat, raqamli adolat va boshqa zamonaviy yondashuvlar haqida muhokama qilindi. Ushbu yangi yondashuvlar ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy va siyosiy sohalarga bog'lamay, balki ekologik va raqamli tenglik kabi yangi masalalarni ham hisobga olgan holda tushuntiradi.

7. Ijtimoiy adolatning amaliy jihatlari: Maqola ijtimoiy adolatning amaliyotda qanday qo'llanilishi va uning jamiyatdagi ta'sirini ham tahlil qildi. Ijtimoiy adolatning kengroq doirada amalga oshirilishi uchun kerakli siyosiy, iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlar belgilandi. Ushbu natijalar maqolaning ijtimoiy adolatning falsafiy talqinini o'rganishga qaratilgan ilmiy hulosalarini ochib beradi. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish orqali, adolatning ijtimoiy va falsafiy jihatlarni chuqurroq tushunishga imkon yaratdi. Ijtimoiy adolat tushunchasi qadimiy falsafiy maktablardan boshlab rivojlanib, o'rta asrlarda xristian teologiyasida, yangi davrda esa liberalizm va marksizmda o'z ifodasini topdi.

Har bir davrda adolatga bo'lgan yondashuvlar, ijtimoiy tizimlar va ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir yangi davrda ijtimoiy adolat tushunchasining yangi o'lchovlari va mezonlari shakllandi. Zamonaviy yondashuvlar, ayniqsa, ekologik adolat, raqamli tenglik, va postmodernizm kabi yangiliklar, ijtimoiy adolatni faqat iqtisodiy yoki siyosiy sohalarga cheklab qo'ymay, balki ekologik va madaniy o'lchamlarda ham ko'rib chiqadi. Bugungi kunda ijtimoiy adolat o'zining o'lchovlari va mezonlar bilan kengayib, global miqyosda yangi o'zgartirishlar va ta'sirlar yaratmoqda. O'zbek falsafasida ijtimoiy adolatning o'ziga xos talqini va tarixiy rivoji yoritildi. O'zbekiston sharoitida ijtimoiy adolatning amalga oshirilishi jamiyatning an'anaviy qadriyatlari, ijtimoiy strukturasi va zamonaviy o'zgarishlar bilan bog'liq holda yangicha yondashuvni talab qiladi. Ekologik va raqamli adolat, shuningdek, global ijtimoiy masalalar doirasidagi tadqiqotlar, ijtimoiy adolatning yangi o'lchovlarini aniqlashda muhim rol o'ynashi mumkin.

XULOSA

Ijtimoiy adolat insoniyat taraqqiyotining bosh mezonlari hamda har qanday jamiyatning barqaror rivojlanish kafolatidir. U faqat ijtimoiy tizimning huquqiy yoki siyosiy tarkibi bilan cheklanmay, balki jamiyat a'zolarining ma'naviy, axloqiy va madaniy ong darajasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Falsafiy nuqtai nazardan adolat — bu erkinlik, tenglik va axloqiy mas'uliyatning uyg'un birligidir. Ushbu uchlikning buzilishi jamiyatda notenglik, ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlik holatlarini yuzaga keltiradi. Shu bois, ijtimoiy adolatni ta'minlash — insonning o'ziga xosligini, sha'nini va qadriyatini e'tirof etuvchi falsafiy-axloqiy tamoyildir.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolat faqat qonun va siyosiy mexanizmlar orqali emas, balki insoniylik, ma'naviyat va axloqiy ong orqali qaror topadi. Har bir davr o'zining tarixiy sharoitiga ko'ra adolatni turlicha talqin etgan: qadimgi dunyo falsafasida adolat — kosmik

muvozanat va tartib timsoli bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarda u ilohiy adolat tamoyillari bilan izohlangan, yangi davrda esa inson huquqlari va ijtimoiy tenglik tushunchalari bilan boyigan. Demak, adolat doimo insoniyat tafakkurining markazida bo'lib kelgan falsafiy kategoriya sifatida o'z tarixiy shakllanishida yangicha mazmun kasb etib borgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy adolatni ta'minlash masalasi milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarning maqsadi — inson manfaatlarini ustuvor qilish, teng imkoniyatlar yaratish va fuqarolarning adolatli hayot kechirish huquqini kafolatlashdan iboratdir. Shu jihatdan, ijtimoiy adolatni ro'yobga chiqarish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy imkoniyatlar, raqamli infratuzilma va inson huquqlarini himoya qilish sohalarida tizimli yondashuv talab etiladi. Bunday tizimda adolat faqat ma'muriy yoki iqtisodiy natija emas, balki jamiyat ongida shakllanadigan ma'naviy qadriyat sifatida qaraladi va ijtimoiy adolat tushunchasi ijtimoiy taraqqiyotning markaziy mezoni sifatida o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi. U inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat, ishonch va tenglik tamoyillariga tayanadi. Shu sababli, adolatni ta'minlash faqat siyosiy yoki iqtisodiy islohotlar bilan emas, balki insonparvarlik, ma'naviyat va falsafiy tafakkur asosida amalga oshirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. Nikomax axloqi. —Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2005. 77-b.
2. Platon. Davlat. —Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 153-b.
3. Amartya Sen. Development as Freedom. —Oxford University Press, 1999. 81 p.
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ijtimoiy hayot va islom. —Toshkent: Hilol nashriyoti, 2012. 95-b.
5. Mamajonov A.X. Falsafa asoslari. —Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2018. 73-b.
6. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat —yengilmas kuch. —Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 55-b.
7. Дзюба А. Социальная справедливость в современном мире. —Москва: Наука, 2016. 38-с.